Abduraimov Dilshod Sultanovich
Guliston davlat universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

USTRUSHONANING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLARDAGI TARIXIY-GEOGRAFIK MAVQEI HAMDA SIYOSIY TARAQQIYOTI: YOZMA MANBALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ustrushonaning antik va ilk o‘rta asrlardagi tarixiy-geografik mavqei, siyosiy taraqqiyoti hamda Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlaridagi o‘rni yozma manbalar va tarixshunoslik materiallari asosida tahlil qilinadi. Ustrushonaning Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Tohariston bilan tutashgan hudud sifatidagi geosiyosiy ahamiyati, qadimgi shaharlar va mudofaa inshootlarining mintaqaviy siyosiy jarayonlardagi vazifasi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ustrushona, tarixiy geografiya, antik davr, ilk o‘rta asrlar, Kirropol, Aleksandriya Esxata, Sug‘d, Choch, Farg‘ona, yozma manbalar, siyosiy tarix, arxeologiya.*

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УСТРУШАНЫ В АНТИЧНЫЙ И РАННЕСРЕДНЕВЕКОВЫЙ ПЕРИОД: АНАЛИЗ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация. *В статье на основе письменных источников и историографических материалов анализируется историко-географическое положение, политическое развитие и место Уструшаны в исторических процессах Средней Азии в античный и раннесредневековый периоды. Раскрывается геополитическое значение Уструшаны как региона, граничившего с Согдом, Чочем, Ферганой и Тохаристаном, а также роль древних городов и оборонительных сооружений в региональных политических процессах.*

Ключевые слова: *Уструшана, Историческая география, древность, раннее Средневековье, Кирополь, Александрия Эсхата, Согд, Чоч, Фергана, письменные источники, политическая история, археология.*

HISTORICAL-GEOGRAPHICAL POSITION AND POLITICAL DEVELOPMENT OF USTRUSHANA IN ANTIQUITY AND THE EARLY MIDDLE AGES: ANALYSIS OF WRITTEN SOURCES

Annotation. *This article analyzes the historical and geographical position of Ustrushana in antiquity and the early Middle Ages, its political development and its role in the historical processes of Central Asia on the basis of written sources and historiographic materials. The geopolitical importance of ustrushona as an area adjacent to Sugd, Choch, Fergana and Toharistan, the function of ancient cities and defense structures in regional political processes are revealed.*

Keywords: *Ustrushona, historical geography, antiquity, early Middle Ages, Kirropol, Alexandria Esxata, Sugd, Choch, Fergana, written sources, political history, archeology.*

Kirish. Markaziy Osiyoning antik va ilk o‘rta asrlar tarixi mintaqada shakllangan mahalliy siyosiy tuzilmalar, shahar madaniyati, savdo yo‘llari va madaniy aloqalarning o‘zaro ta’siri bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur anglash uchun alohida tarixiy-madaniy hududlarning geografik o‘rni, siyosiy maqomi va qo‘shni viloyatlar bilan munosabatlarini kompleks ravishda o‘rganish talab etiladi. Shunday hududlardan biri Ustrushona bo‘lib, u qadimgi va o‘rta asrlar Markaziy Osiyosining tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan.

Ustrushona tarixiy-madaniy o‘lkasi hozirgi O‘zbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hamda Tojikistonning shimoliy hududlari bilan bog‘liq tarixiy geografik makonni qamrab olgan.

Uning Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Tohariston singari tarixiy viloyatlarga tutashganligi hududning siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini belgilagan. Mazkur joylashuv Ustrushonani turli siyosiy kuchlar manfaatlari kesishadigan, savdo yo‘llari o‘tadigan va madaniy ta’sirlar almashinadigan hududga aylantirgan [1].

Antik davrga oid yunon-rim mualliflarining asarlarida Ustrushona nomi har doim ham bevosita qayd etilmaydi. Shunga qaramay, Aleksandr Makedonskiyning Sirdaryo ortidagi hududlarga yurishlari, mahalliy aholi qarshiligi va mustahkamlangan shaharlar haqidagi xabarlar mazkur tarixiy makonni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arrian, Kvint Kursiy Ruf va Strabon ma’lumotlari keyingi tarixshunoslikda Ustrushonaning qadimgi geografiyasi bilan bog‘liq masalalarni aniqlashtirishda keng qo‘llanilgan [2; 3; 4].

Ilk o‘rta asrlarga kelib, Ustrushona haqidagi ma’lumotlar qadimgi Xitoy yilnomalari, sug‘d yozma hujjatlari va arab-fors tarixiy-geografik asarlarida yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Bu manbalar hududning nomlanishi, chegaralari, qo‘shni siyosiy birliklar bilan aloqalari hamda mahalliy hukmdorlarning faoliyatini o‘rganish imkonini beradi [5; 6].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Ustrushona tarixini faqat alohida viloyatning siyosiy tarixi sifatida emas, balki Markaziy Osiyoda hududiy boshqaruv, siyosiy mustaqillik va mintaqalararo aloqalar shakllangan jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish zarur. Bunday yondashuv qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixini zamonaviy siyosiy chegaralar asosida emas, balki tarixiy aloqalar va madaniy makonlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida anglashga yordam beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Ustrushona tarixiga oid yozma manbalar va tarixshunoslik qarashlarini hududning geosiyosiy o‘rni bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish, shuningdek, ayrim munozarali tarixiy-geografik masalalarga manbashunoslik nuqtayi nazaridan yondashish bilan belgilanadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotning manbaviy asosini antik yunon-rim mualliflarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari, sug‘d yozma hujjatlari, arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda Ustrushona tarixiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Manbalar majmuasi hududning tarixiy geografiyasi, siyosiy taraqqiyoti va shaharlar tizimini o‘rganish imkonini beradi.

Antik davrga oid manbalar orasida Arrianning “Aleksandr yurishlari”, Kvint Kursiy Rufning Aleksandr Makedonskiy tarixiga bag‘ishlangan asari va Strabonning “Geografiya”si alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlarda Markaziy Osiyoning siyosiy geografiyasi, mustahkamlangan shaharlar, mahalliy aholining turmush tarzi va makedoniyaliklar yurishlari bilan bog‘liq voqealar qayd etilgan [2; 3; 4]. Mazkur asarlar mualliflarining tarixiy voqealarga munosabati va ma’lumotlarining uzatilish sharoiti hisobga olinib, ular o‘zaro qiyoslash asosida tahlil qilindi.

Qadimgi Xitoy manbalari, jumladan, “Beyshi”, “Suyshu” va “Tan-shu” yilnomalari Ustrushonaning ilk o‘rta asrlardagi nomlanishi, geografik chegaralari va tashqi aloqalariga doir ma’lumotlarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Xitoy yilnomalarida hudud nomining turli shakllarda qayd etilishi tarixiy toponimlarni aniqlashda murakkablik tug‘diradi. Shu sababli toponimik ma’lumotlar boshqa yozma manbalar va tarixiy-geografik tadqiqotlar bilan qiyoslandi [5; 6].

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy metod. Turli davrlarda yaratilgan yozma manbalardagi ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi. Bir voqea yoki geografik obyekt haqidagi xabarlarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ma’lumotlarning ishonchlilik darajasiga ta’sir etuvchi omillar hisobga olindi.

Manbashunoslik tahlili. Yozma manbalarning yaratilish sharoiti, mualliflarning tarixiy voqealarga munosabati va ma’lumotlarning uzatilish xususiyatlari e’tiborga olindi. Ayniqsa, antik mualliflarda uchraydigan geografik nomlarni keyingi davr tarixiy hududlari bilan tenglashtirishda ehtiyotkorlik tamoyiliga amal qilindi.

Tarixiy-geografik metod. Ustrushonaning Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Tohariston bilan tutashgan hudud sifatidagi o‘rni, shaharlar joylashuvi va tabiiy geografik sharoitlarning siyosiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilindi. Tarixshunoslik tahlili. V.V. Bartold, N.N. Negmatov, I.V.

Pyankov va boshqa tadqiqotchilarning Ustrushona tarixi, qadimgi shaharlar lokalizatsiyasi va mintaqaviy siyosiy jarayonlarga oid qarashlari qiyosiy o‘rganildi [7; 8; 9].

Kompleks yondashuv. Yozma manbalardagi xabarlar arxeologik tadqiqotlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Bunda yozma ma’lumotlar va arxeologik dalillar bir-birini to‘ldirishi mumkinligi bilan birga, ular orasida vaqt, makon va talqin jihatidan tafovutlar bo‘lishi ham mumkinligi e’tiborga olindi. Tadqiqotning metodologik tamoyili Ustrushona tarixini yagona siyosiy yoki etnik jarayon bilan cheklamasdan, geografik muhit, mahalliy siyosiy tuzilmalar va tashqi aloqalarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida izohlashdan iborat.

Natijalar. Ustrushonaning tarixiy-geografik o‘rni va mintaqaviy ahamiyati Ustrushonaning tarixiy taraqqiyotida uning geografik joylashuvi muhim omil bo‘lgan. Hududning Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Tohariston bilan tutashganligi uni Markaziy Osiyoning turli tarixiy-madaniy markazlarini bog‘lovchi makonga aylantirgan. Bunday geografik vaziyat Ustrushonaga bir vaqtning o‘zida savdo yo‘llari, siyosiy aloqalar va madaniy almashinuv jarayonlarida ishtirok etish imkonini bergan [1].

Antik manbalarda Ustrushona bilan bog‘liq tarixiy-geografik ma’lumotlar Ustrushona tarixining antik davrini o‘rganishda yunon-rim mualliflarining asarlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu mualliflar Markaziy Osiyodagi shaharlar, daryolar, aholi guruhlari va harbiy yurishlar haqida ma’lumot berganlar. Biroq antik manbalarda Ustrushona nomining bevosita uchramasligi yoki geografik nomlarning keyingi davr hududlari bilan aynan mos kelmasligi tarixiy talqinni murakkablashtiradi [2; 3].

Arrianning Aleksandr Makedonskiy yurishlariga oid xabarlarida Sirdaryo bilan bog‘liq voqealar va mustahkamlangan shaharlar tilga olinadi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Aleksandr qo‘shinlari daryo bo‘yidagi hududlarda harbiy-siyosiy nazoratni mustahkamlashga intilgan. Bu jarayonda shaharlar nafaqat aholi yashaydigan manzilgohlar, balki mudofaa va harbiy boshqaruv markazlari sifatida ham muhim vazifani bajargan.

Aleksandr yurishlari bilan bog‘liq tarixiy voqealarni Ustrushona hududi bilan bog‘lash masalasi tarixshunoslikda alohida munozara mavzusidir. Ayrim tadqiqotchilar mahalliy aholining qarshilik harakatlari va tog‘li hududlarning strategik ahamiyatiga asoslanib, voqealarning bir qismini Ustrushona bilan bog‘laydilar. Biroq antik mualliflar qayd etgan har bir shahar yoki voqeani Ustrushona hududiga bevosita nisbat berish uchun qo‘shimcha dalillar talab etiladi. Arrian va Kvint Kursiy Ruf asarlarida Kirropol nomi bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi. Ushbu shahar nomining fors hukmdori Kir bilan bog‘lanishi uning qadimgi siyosiy xotira va shaharsozlik an’analari doirasidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Kirropolning aynan qayerda joylashganligi borasida esa turli qarashlar mavjud.

Ayrim olimlar uni hozirgi Istaravshan bilan, boshqalari O‘ratepa, Zomin yoki boshqa tarixiy manzilgohlar bilan bog‘lashga uringanlar [2; 3; 7].

Arxeologik dalillar va qadimgi shaharlar masalasi. Ustrushonaning antik davrdagi tarixini aniqlashtirishda arxeologik tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Yozma manbalarda qayd etilgan shaharlar va qal’alarni arxeologik obyektlar bilan qiyoslash hududning qadimgi aholi manzilgohlari, mudofaa tizimi va xo‘jalik hayoti haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Ustrushonaning markaziy qismlarida, jumladan, Xo‘jamushkentsoy quyi oqimiga yaqin Sabot mikrovahasi hududida miloddan avvalgi V–IV asrlarga oid arxeologik obyektlar o‘rganilgan. Xontepa, Sag‘anaqtepa va Sag‘anoqtepa I kabi yodgorliklar qadimgi aholi manzilgohlari va ularning xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda ahamiyatga ega [11].

Xontepa va unga yaqin hududlardan topilgan buyumlar, jumladan, tosh materiallar tadqiqotchilar tomonidan qadimgi harbiy voqealar bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Bunday topilmalar hududning siyosiy tarixini o‘rganishda muhim bo‘lsa-da, ularning vazifasi va tarixiy voqealarga aloqadorligini aniqlash uchun topilmaning arxeologik konteksti, qatlamning sanasi va boshqa dalillarni hisobga olish zarur.

Eski Xovos yodgorligi ham Ustrushona va unga tutash hududlarning qadimgi tarixini o‘rganishda muhim manzilgohlardan biridir. Ushbu yodgorlikdagi arxeologik tadqiqotlar natijasida uning tarixiy rivojlanish bosqichlari va Ahamoniylar davri bilan bog‘liq masalalar

yoritilgan [11; 12]. Bu ma’lumotlar hududda antik davrgacha bo‘lgan siyosiy va xo‘jalik an’analari shakllanganini o‘rganish uchun asos beradi.

Ustrushona nomining yozma manbalardagi shakllari. Ustrushona tarixini o‘rganishda toponimika va manbashunoslikka oid muammolardan biri hudud nomining turli manbalarda turlicha yozilishidir. Xitoy yilnomalarida bu hudud Shuay-dushina, Sudushina, Suduyshana, Sutulisena kabi shakllarda uchraydi. Boshqa manbalarda esa Ustrushana, Asrushana, Ashrushana, Osrushana va shunga yaqin variantlar qayd etilgan [5; 6].

Mug‘ tog‘idan topilgan VIII asrga oid sug‘d hujjatlari Ustrushona nomini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. V.A. Livshits tomonidan ushbu hujjatlar asosida taklif etilgan talqin hudud nomini o‘qish masalasida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan [6]. Bu holat mahalliy yozma hujjatlar tashqi manbalardagi nomlarni tekshirish va tarixiy geografiyani aniqlashtirishda katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Ilk o‘rta asrlarda Ustrushonaning siyosiy mavqei. Ilk o‘rta asrlarda Ustrushona Markaziy Osiyodagi mahalliy siyosiy tuzilmalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Qadimgi Xitoy yilnomalarida hududning mustaqil siyosiy birlik sifatida qayd etilishi, uning qo‘shni viloyatlar bilan munosabatlari va hukmdorlari haqidagi ma’lumotlar Ustrushonaning mintaqaviy siyosatdagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi [5].

Ustrushonaning siyosiy taraqqiyoti yirik siyosiy kuchlar bilan munosabatlar doirasida kechgan. Xitoyga elchilar yuborilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar ham keltiriladi. Bu kabi diplomatik aloqalar Ustrushonaning faqat ichki siyosiy hayot bilan cheklanmaganini, balki mintaqalararo siyosiy munosabatlarda ham ishtirok etganini ko‘rsatadi [5]. Elchilik aloqalarini faqat ramziy hodisa sifatida emas, balki siyosiy tan olinishi, savdo manfaatlari va xavfsizlik masalalari bilan bog‘liq jarayon sifatida ham tahlil qilish mumkin.

Muhokama. Tadqiqot natijalari Ustrushonaning tarixiy taraqqiyotini uchta o‘zaro bog‘liq omil orqali tushuntirish mumkinligini ko‘rsatadi: geografik joylashuv, mahalliy siyosiy tuzilmalar va tashqi aloqalar. Ushbu omillarning har biri alohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, Ustrushonaning tarixiy mavqei aynan ularning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan.

Birinchidan, geografik joylashuv Ustrushonaga qo‘shni tarixiy viloyatlar bilan muntazam aloqada bo‘lish imkonini yaratgan. Biroq ushbu imkoniyatning o‘zi siyosiy va iqtisodiy rivojlanishni avtomatik ravishda ta’minlamagan. Hududning strategik ahamiyati uni tashqi siyosiy raqobat markaziga ham aylantirgan. Shu ma’noda, geografik qulaylik bir vaqtning o‘zida rivojlanish omili va siyosiy xavf manbai bo‘lgan.

Ikkinchidan, yozma manbalarni tahlil qilish Ustrushona tarixini o‘rganishda manbashunoslik yondashuvining zarurligini ko‘rsatadi. Antik mualliflarning geografik xabarlari ko‘pincha harbiy yurishlar bilan bog‘liq holda berilgan.

Shu sababli ularning ma’lumotlari hududning barcha jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Xitoy yilnomalari esa geografik tavsif va diplomatik aloqalarga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin. Manbalar orasidagi farqlarni oddiy qarama-qarshilik sifatida emas, balki ularning yaratilish sharoitlari bilan bog‘liq xususiyat sifatida baholash kerak.

Uchinchidan, Kirropol va Aleksandriya Esxata kabi shaharlarning joylashuviga doir munozaralar tarixiy geografiyaning hali ham aniqlashtirishni talab qiladigan masalalari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu masalalarda biror qarashni mutlaq haqiqat sifatida taqdim etishdan ko‘ra, turli ilmiy taxminlarning daliliy asoslarini solishtirish maqsadga muvofiqdir. Yozma manbalar, arxeologik qatlamlar va tarixiy yo‘nalishlarni birgalikda o‘rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun samarali yo‘nalish hisoblanadi [2; 3; 7; 10].

To‘rtinchidan, Ustrushonaning ilk o‘rta asrlardagi siyosiy mavqei uning tashqi kuchlar ta’sirida butunlay passiv hudud bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Mahalliy hukmdorlarning diplomatik aloqalari, siyosiy qarshiliklari va o‘z mavqeini saqlashga qaratilgan faoliyati hududning tarixiy jarayonlardagi mustaqil subyekt sifatidagi ahamiyatini belgilaydi.

Ushbu mulohazalar Ustrushona tarixini kengroq mintaqaviy kontekstda o‘rganish zarurligini asoslaydi. Hududning tarixi faqat alohida hukmdorlar yoki harbiy yurishlar ketma-

ketligi bilan chegaralanmaydi. U Markaziy Osiyoda siyosiy chegaralar, savdo yo‘llari va madaniy aloqalarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan tarixiy makonning muhim tarkibiy qismidir.

Xulosa. Ustrushonaning antik va ilk o‘rta asrlardagi tarixiy-geografik mavqei hamda siyosiy taraqqiyotini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, Ustrushonaning Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Tohariston bilan tutashgan geografik o‘rni uning siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lgan. Hudud mintaqaviy aloqalar, savdo yo‘llari va siyosiy manfaatlar kesishgan makon sifatida rivojlangan.

Ikkinchidan, antik yunon-rim mualliflarining asarlari Ustrushonaning qadimgi tarixini bevosita va to‘liq yoritmasa-da, Aleksandr Makedonskiy yurishlari, shaharlar va mahalliy aholining qarshiligi bilan bog‘liq ma’lumotlar orqali tarixiy geografiyani tiklashga yordam beradi. Ushbu xabarlarni talqin qilishda manbalararo qiyoslash va arxeologik dalillarga tayanish muhimdir.

Uchinchidan, Kirropol va Aleksandriya Esxata shaharlarining joylashuviga doir masalalar tarixshunoslikda turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur masalalar bo‘yicha yakuniy xulosalar chiqarishda arxeologik materiallar, yozma xabarlar va tarixiy-geografik belgilar birgalikda hisobga olinishi lozim. To‘rtinchidan, Ustrushona nomining qadimgi va o‘rta asrlar manbalarida turli shakllarda uchrashi hududning turli yozuv va madaniy an’analarida qayd etilganini ko‘rsatadi. Xitoy yilnomalari va sug‘d hujjatlari ushbu nomning tarixiy shakllarini aniqlashtirishda muhim manbaviy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Ustrushona Markaziy Osiyoning antik va ilk o‘rta asrlardagi tarixida geografik, siyosiy va madaniy aloqalarni birlashtirgan faol tarixiy makon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tarixini manbashunoslik, arxeologiya va tarixiy geografiya metodlari asosida kompleks o‘rganish mintaqa tarixining hali to‘liq aniqlashtirilmagan masalalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по X в. н.э. // Материалы и исследования по археологии СССР. № 37. - Москва–Ленинград, 1953. - С. 232–234.

2. Арриан Флавий. Поход Александра / Пер. с древнегреч. М.Е. Сергеенко. — Москва–Ленинград: Издательство АН СССР, 1962. - С. 134–136.

3. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Сохранившиеся книги / Пер. под ред. В.С. Соколова. - Москва: Издательство Московского университета, 1963. - С. 155–156.

4. Страбон. География в 17 книгах. Репринтное воспроизведение текста издания 1964 г. -Москва: Ладомир, 1994. -С. 487–488.

5. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I–II. Москва–Ленинград, 1950. -С. 312–313.

6. Лившиц В.А. Согдийский посол в Чаче (Документ А-14 с горы Муг) // Советская этнография. -1960. № 2. - С. 101–105.

7. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. Т. 2. Ч. 1. - Москва, 1963. - С. 167–173.

8. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. - Душанбе, 1957.

9. Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции (Общие данные о стране: название и территория). -Душанбе: Дониш, 1982. - С. 25–26.

10. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. - Душанбе: Ирфон, 1989. - С. 120.

11. Қадимий Зомин / Муаллифлар жамоаси; масъул муҳаррир М.Ҳ. Пардаев. - Тошкент, 2018. -Б. 125.

12. Грицина А.А., Содиқов М. Эски Ховос ва унга қўшни ҳудудлар қадим ва ўрта асрларда. -Тошкент, 2010. - Б.70.